GERMANIYA AQLIY MARKAZLARINING TASHQI SIYOSATGA TA’SIRI

Sultonaliyeva Muslimaxon
Toshkent davlat sharqshunoslik universtiteti
“Xalqaro munosabatlar” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Jahon siyosiy sahnasida so‘nggi yillarda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar shiddati ostida aqliy markazlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ushbu maqolada Germaniya Federativ Respublikasi tashqi siyosatini shakllantirishda aqliy markazlarning tutgan o‘rni va ta’siri tahlil qilinadi. Mazkur maqolada SWP, DGAP va siyosiy jamg‘armalar KAS, FES kabi institutlarning davlat organlari va akademik doiralar o‘rtasidagi aloqalar ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, “Zeitenwende” strategiyasi sharoitida tashqi siyosatni belgilashda qanchalik ahamiyat kasb etayotgani tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Zeitenwende, SWP, “win-win”, “de-risking” strategiyasi, DGAP, KAS, FES, “Ostpolitik”, “to‘rt ustun” siyosati.

KIRISh XXI asr boshlaridan buyon dunyo miqyosida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar shiddati, xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlar va mamlakatlar o‘rtasida chuqurlashib borayotgan ishonchsizlik inqirozi davrida davlatlararo bahsli masalalar, ayniqsa, siyosiy-iqtisodiy muammolarni chuqur tadqiq etishni taqazo qilmoqda. Bunday muhitda davlatlarning tashqi siyosatini belgilash nafaqat diplomatlar va siyosatchilarning mahoratiga, balki kuchli analitik tahlil markazlar va strategik prognozlarga tayanadi. Yevropa ittifoqining iqtisodiy va siyosiy yetakchi kuchi hisoblangan GFR misolida bu jarayon o‘ziga xos ko‘rinishga ega. Berlin tashqi siyosatining intelektual poydevori sifatida ko‘rilgan “think tanks” ya’ni aqliy markazlar muhim qarorlar qabul qilishning ajralmas bo‘lagiga aylanib ulgurgan. “Zeitewende” ya’ni burilish nuqtasi davrida ushbu institutlarning mas’uliyati toboro ortib bormoqda. Ushbu maqolaning maqsadi Germaniyaning davlatlarga nisbatan olib borayotgan strategiyasi aqliy markazlar tomonidan ishlab chiqilgani va tashqi siyosatdagi o‘rnini ochib berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR Aqliy markazlarining tashqi siyosatga ta’siri mavzusi ilmiy izlanishlar so‘nggi o‘n yillikda sezilarli darajada kengaydi. Maqola bo‘yicha adabiyotlar tahlili ikki yo‘nalishga ajratish mumkin, birinchisi nazariy ikkinchisi esa amaliy-tahliliy tadqiqotlar. Nazariy yo‘nalish bo‘yicha muhim adabiyotlardan biri bu Jozef Nay ning “Yumshoq kuch” kitobi hisoblanadi. Muallif fondlar, universitetlar va nodavlat tashkilotlarning hukumat siyosatidan mustaqil tarzda o‘z yumshoq kuchini shakllantirish mumkinligini Konrad-Adenauer-Stiftung (KAS) va Friedrich-Ebert-Stiftung (FES) siyosiy fondlari asosida maqolada ko‘rib chiqildi. Germaniya o‘z strategiyasini belgilashda Zbignev Bjenizkiyning “Buyuk shaxmat taxtasi” ikkinchi muhim manba bo‘lib xizmat qildi. GFR aqliy markazlarining o‘ziga xos modelini tushunishda Martin Tunerning “Think tanks” maqolasi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Amaliy-tahliliy adabiyotlar orasida SWP tadqiqotchilari I.Kerri, N.Godexart va M.Myullerning “The Logic of Germay’s China Policy in the Zeitenwende” maqolasi muhim o‘rin egallaydi. O.Shpillner va G.Volfning tadqiqotlari ham Berlin uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

Ushbu maqolada qiyosiy-siyosiy va tizimli siyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR 1-rasm



(Muallif ishi)

ASOSIY QISM

So‘nggi yillarda xalqaro munosabatalar tizimi keskin o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. Kuchlar muvozanatining tubdan o‘zgarishi yetakchi mamlakatlarning tashqi siyosatida zamonaviy strategik yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda. Germaniya Federativ Respublikasi kabi Yevropa Ittifoqining yirik iqtisodiy kuchi hisoblangan davlat sifatida bugungi kunda tashqi siyosiy qarorlarini faqatgina diplomatik hisobotlar va razvedka ma’lumotlarga tayanib qaror qabul qila olmaydi. 2026-yilning shiddatli geosiyosiy va geoiqtisodiy voqea-hodisalari, Rossiya-Ukraina urushidan tortib hozirgi kunda hali ham davom etib kelayotgan AQSH-Eron o‘rtasidagi ziddiyatlar Berlinni yanada ehtiyotkor bo‘lishga undamoqda. Bu jarayonda Germaniya aqliy markazlari shunchaki oddiy maslahatchi emas, balki Berlin chiqarayotgan qarorlarning poydevori hisoblanadi.

Germaniya dunyoda eng ko‘p aqliy markazlarga ega bo‘lgan davlatlar orasida 5-o‘rinda turadi. Yevropa Ittifoqida Berlin aqliy markazlar soni ularning siyosatga ta’siri bo‘yicha esa 1-o‘rinda turadi. GFRning tashqi va xavfsizlik siyosati bo‘yicha davlatga eng yaqin va nufuzli maslahat organi Stiftung Wissenschaft und Politik (SWP) hisoblanadi. Bu maslahat organining boshqa aqliy markazlardan farqi - bevosita Federal hukumat va Bundestag, ya’ni parlament uchun ishlaydi. Berlinning muhim qarorlar qabul qilishida masalan, sanksiya joriy etishi yoki harbiy missiya yuborish kabi masalalarda, avvalo SWP ekspertlaridan tahliliy xulosalar olinadi. Bundan tashqari SWP tadqiqotlari o‘ta maxfiy va yuqori darajada akademik xolislik bilan ajralib turadi. [1]

Germaniya Tashqi Aloqalar Kengashi, ya’ni Deutsche Gesellschaft fur Auswartige Politik (DGAP) 1955-yildan beri Berlinning tashqi aloqalarni olib borishda asosiy institutlardan biri bo‘lib kelmoqda. Avvaliga Bonn shahrida o‘z faoliyatini olib borgan, keyinchalik 1999-yilda markaz Berlinga ko‘chgan. Ushbu aqliy markaz xalqaro

[1] Stiftung Wissenschaft und Politik (SWP). (2024). Profile and Mission: Advising the Bundestag and the Federal Government

munosabatlarni tushunishni yaxshilash va tashqi siyosatda dolzarb masalalarni ilmiy jihatdan o‘rganishni maqsad qilib qo‘ygan tashkilot hisoblanadi.[2]

Germaniya Tashqi ishlar vazirligi DGAP va SWP kabi bir qancha aqliy markazlarni moliyalashtiradi. Asosan ularning moliyalashtirishning 30 foizi Tashqi ishlar vazirligidan kelishi taxmin qilinadi.[3] SWP o‘z qaror va tavsiyalarini yashirin tarzda hukumatga yetkazish bilan tanilgan bo‘lsa, DGAP esa siyosiy elita uchun eng ta’sirchan markaz deb kelinadi, chunki uning asosiy vazifasi hukumat va parlamentni tashqi siyosat masalalarida muhim maslahat va xulosalar bilan ta’minlashdir. Shu bilan birga ushbu aqliy markaz jamoat fikriga eng ko‘p ta’sir qiluvchi tashkilot deb tan olingan.

Germaniya Federativ Respublikasida partiyalar bilan uzviy bog‘langan siyosiy fondlar ham mavjud. Jumladan, Konrad-Adenauer-Stiftung (KAS) Xristian-Demokratik Ittifoq bilan bog‘liq, Friedrich-Ebert-Stiftung (FES) esa Sotsial-Demokratik Partiyaga yaqin. Har ikkala aqliy markaz dunyo bo’ylab 100dan ortiq o‘lkalar vakolatxonlariga ega bo‘lib, turli mintaqalardagi geosiyosiy o‘zgarishlarni aniqlash va ularni davlat strategiyasiga moslashtish bilan faoliyat olib boradi. KAS demokratiyani mustahkamlash, Yevropa integratsiyani rivojlantirish hamda AQSH bilan hamkorlikni yanada mustahkamlashni ustuvor vazifa hisoblanadi.[4] Zbignev Bjenizkiy kitobida - “Amerikadan mustaqil bo‘lgan Yevropa Germaniya prinsiplariga mos variant emas. Yevropani xavsizligini AQSh ta’minlagan holda uni asrab qolish prinsipi, Germaniya pozitsiyani belgilab berdi va uni bir vaqtning o‘zida Yevropaning haqiqiy vorisi va Amerikaning Yevropadagi eng kuchli tarafdoriga aylantirdi.” deb yozgan. [5]

FES eng qadimgi siyosiy fond bo‘lib, demokratik yo‘l bilan saylangan prezident Fridrix Ebert nomi hilan atalgan. Uning asosiy vazifalari: ishchilar huquqlari, kasaba uyushmalarini qo‘llab-quvvatlash hamda “Global Janub” davlatlari bilan muloqotni rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Germaniyaning Xitoy Xalq Respublikasiga nisbatan tashqi siyosatini SWP tadqiqotchilari Inga Kerri, Nadin Godexart va Melani Myuller tomonidan yozilgan “The logic of Germany’s China Policy in the Zeitenwende” nomli maqola Germaniyaning Xitoy bilan munosabatlarini “win-win” ya’ni hamkorlik asosida teng foyda modelidan “de-risking” ya’ni xavflarni kamaytirish strategiyasiga o‘tkazish zarurligini ilmiy asoslab bergan. Bu strategiya hukumat tomonidan emas balki, SWP tadqiqotchilari tomonidan avval nazariy jihatdan isbotlab berilgan va so‘ngra rasmiy siyosatga aylandi.

2022-yildan boshlab Zeitenwende konsepsiyasi doirasida Germaniya tashqi siyosatida uchta ustuvor yo‘nalish belgilandi. Birinchisi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, ikkinchisi energetik qaramlikni kamaytirish, uchinchisi esa savdo siyosatini milliy xavsizlik bilan uyg‘unlashtirishdan iborat. Aynan SWP shu uchta yo‘nalishni ilmiy jihatdan birinchi bo‘lib asoslab, federal hukumatga taqdim etgan. Germaniya Federal hukumatining “de-risking” strategiyasi bu Xitoy bilan aloqalarni to‘liq uzmagan holda Pekinni o‘rnini bosishi mumkin muqobil variantlarni ko‘rib chiqish hisoblanadi. Berlin va Pekinning iqtisodiy bog‘liqligi katta imkoniyat va muvafaqiyatlar bilan bir qatorda xavflari ham mavjud. [6] Covid-19

[2] Deutsche Gesellschaft für Auswärtige Politik (DGAP). (2024). Annual Report: Shaping the Foreign Policy Debate. Berlin: DGAP Press

[3] On Think Tanks (OTT). (2022). The German Think Tank Landscape: Funding and Influence Mechanisms.

[4] Konrad-Adenauer-Stiftung (KAS). (2024). Statutes and Strategic Goals for European Integration.

[5] Zbignev Bjenizkiy. (2023). Buyuk shaxmat taxtasi: Amerikaning hukmronligi va uning geostrategetik imperativlari.

[6] Federal Foreign Office. (2023). Strategy on China of the Government of the Federal Republic of Germany.

Pandemiya davrida Xitoy ta’minot zanjirini uzib qo‘yishi Berlinning iqtisodiy sanoatini inqirozga uchratdi. Bundan tashqari, 2025-yilda Xitoyning nodir yer elementlari eksportiga oid cheklovlar Berlin uchun ogohlantiruvchi signal bo‘lib xizmat qildi.

Maqolda keltirilgan “boshqariladigan bog‘liqlik” – ya’ni Xitoy bilan iqtisodiy aloqalarni saqlab qolgan holda strategik mustaqillikni mustahkamlash g'oyasi SWP tadqiqotlarida ishlab chiqilib, keyinchalik hukumatning rasmiy yondashuvi sifatida qabul qilindi. Hukumat SWP tahlillarisiz bu qadar tez va izchil tarzda “win-win” modelidan “de-risking” strategiyasiga o‘ta olmas edi.

2026-yil fevral oyida Germaniya kansleri Fridrix Merts Pekinga tashrif buyurib, Xitoy bilan aloqalarni qayta ko‘rib chiqsh zarurligini ta’kidladi. [7]Tashrif davomida Berlin iqtisodiy aloqalarni saqlab qolish istagini bildirgan bo‘lsada, bozor nomutanosibligi, subsidiyalar va strategik xavflar masalasini ham ochiq ko‘tardi. Ushbu holat Geramniyaning Xitoyga nisbatan siyosati yaqinlashuv emas, balki ehtiyotkor boshqaruv bosqichiga o‘tganini bildiradi.

Germaniyaning Rossiyaga nisbatan yillar davomida olib borgan “Ostpolitik” ya’ni muloqot va yaqinlashuv siyosati aqliy markazlar tomidan uzoq vaqtdan beri tanqid qilinib kelinadi. DGAP tahlilchilari xulosasiga ko‘ra, Rossiyaning Ukrainaga keng ko‘lamli urush boshlagandan bor yo‘g‘i uch kun o‘tib, kansler Olaf Sholts o‘z siyosatida tub burishni ya’ni “Zeitewende” ni e’lon qildi. Hukumat Nord Stream 2 gaz quvurini to‘xtatdi, Rossiya bilan energetika aloqalarini uzishga kirishdi, Ukrainaga qurol yetkazib berishga ruxsat berdi, Bundesver uchun 100 milliard yevrolik maxsus fond tashkil etdi, hamda Yevropa Ittifoqi doirasida Rossiyaga qarshi sanksiyalarni qo‘llab-quvvatladi.

Biroq bu qarorlar birdan paydo bo‘lgani yo‘q. DGAP ning Stefan Mayster boshchiligidagi markaz Moskva bilan energetik bog‘liqligining xavflarini, Putinning tobora avtoritar siyosat yuritayotganini va Berlindagi siyosiy elitaning bu o‘zgarishlarni inkor etayotganini va befarq ekanligini hujjatlashtirishdi. DGAP ekspertlari tahliliga ko‘ra, urush boshlagunuga qadar Moskva G‘arbga qarshi gibrid urushi olib borgan, ammo Berlin buni kech tan oldi. Shu voqealikni to‘liq ochib berish hamda parlament muhakamalariga olib kirishda DGAP maqolalari hal qiluvchi ro‘l o‘ynadi. [8]Qirqdan ortiq tadbir o‘ttizdan ziyod nashrlar orqali markaz Rossiyaning Ukrainaga urushi ortidan Germaniyaning geosiyosiy hamda geoiqtisodiy pozitsiyasini tahlil qildi hamda ushbu qiyinchiliklarni yengib o‘tish uchun variantlar taqdim etdi.

KAS ning eng muhim strategik hissasi AQSH-Yevropa munosabatlarini mustahkamlashda ko‘rinadi. Ushbu aqliy markaz uchun transatlantik hamkorlik va Yevropa Ittifoqi xavsizligi va mudofaa siyosati muhim hisoblanadi. Ushbu aqliy markaz Serbiyaning “to‘rt ustun” siyosatini tahlil qilib, Berlinga yo‘nalish berishda muhim ahamiyat kasb etgan. KAS Serbiya vakolatxonasi Ukraina urushi boshlangandan so‘ng, Serbiyani “to‘rt ustun” siyosatini yanada chuqur tahlil etgan. [9] Bu strategiya 2009-yilda shakllangan bo‘lib, Yevropa ittifoqini asosiy ustun, Rossiya, Xitoy va AQSHni esa qolgan uchta ustun sifatida ko‘rgan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Yevropa Serbiya uchun savdo bo‘yicha eng muhim hamkor. Berlin Serbiyaga nisbatan tashqi siyosat yuritishda KAS ning hisobotlariga tayanadi. Serbiyani Rossiya yoki Xitoyga yaqin deb baholamasdan, uni geosiyosiy holatini tushungan holda, to‘g‘ri va maqsadli siyosat yuritish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

[7] Government Press Office. (2026). Statement by Chancellor Friedrich Merz on the official visit to the People's Republic of China.

[8] German Council on Foreign Relations (DGAP). (2022). Germany’s Russia policy and the war in Ukraine.

[9] Konrad-Adenauer-Stiftung (KAS). (2023). EU integration and political developments in Serbia.

Darhaqiqat, KAS ning Serbiyada amalga oshirgan ishlaridan yana biri-Serbiya televideniyasi bilan hamkorlikda haftada bir marta chiqadigan iqtisodiy ko‘rsatuv tashkil etish bo‘ldi. Vaholanki, bu shunchaki ko‘rsatuv emas, balki yumshoq kuch orqali ta’sir o‘tkazish hamda Yevropa standartlarini qanday ishlashini ko‘rsatish edi. KAS bu orqali nafaqat siyosatchilar, balki oddiy aholining siyosiy ongini shakllantirdi. KAS ning Sharqiy Yevropa bo‘yicha ikki maqsadi mavjud. Birinchisi demokratiya va huquq ustuvorligini mustahkamlash hamda Yevropa ittifoqi qo‘shnichilik siyosati doirasida Yevropa integratsiyasini rivojlantirish. Bu ikki maqsad bir-biriga uzviy bog‘liq chunki demokratiya sust bo‘lgan davlat Yevropa ittifoqiga kira olmaydi, YI ga kirmagan davlat esa Germaniya ta’sir doirasidan chetda qoladi.

2023-yilgi Turkiya saylovlari oldidan Yevropa xavotirda edi, ya’ni Erdog‘an hokimyatga kelsa, Turkiya-Yevropa ittifoqi munosabatlari yomonlashar edi. 2022-yilda FES Bryusselda maxsus uchrashuv tashkil etdi. [10]Ushbu yig‘ilishda Turkiyaning oltita muxolifat partiyasidan iborat tashqi siyosat vakillari va Yevropa institutlari bir yerga to‘plandi. Bu rasmiy uchrashuv emas edi, lekin Germaniya tashqi ishlar vazirligi buni ochiq qila olmasdi. Biroq FES buni tashkillashtira oldi. Uchrashuv maqsadi-Turkiya muxolifati bilan aloqalarni yaxshilash, agar ular hokimyatga keladigan bo‘lsa, Yevropa bilan ishlashga tayyor bo‘lishi kerak edi.

2023-yilda Germaniya va G‘arb uchun kutilmagan bir hodisa ro‘y berdi. Braziliya prezidenti Lula da Silva Ukraina urushida Rossiyaga qarshi sanksiyalarni qo‘llab-quvvatlamadi, qurol yuborishdan bosh tortdi va Xitoy bilan birgalikda “tinchlik tashabbusi” ko‘tarmoqchi bo‘ldi.[11] Berlin uchun bu jiddiy muammo edi, chunki Lotin Amerikasining eng katta davlati G‘arb bilan birga emas edi. FES bunday vaziyatda Kolumbiya vakolatxonasida maxsus tahlil nashr etirdi. Ushbu tahlilda, Braziliya tinchlik tashabbusini ko‘tardi, chunki uning diplomatiyasi uchun asosiy tahdid bu urushning o‘zi, tomonlarni biriga yon bosish emasligi tushuntirib berilgan. Tahlil orqali Braziliya Rossiya tomonida emas, balki bu o‘z diplomatik tahlillari borligi ko‘rsatib berildi. Vaholanki, bu vaziyatni Berlin to‘g‘ri tushunib farqni bilmaganda, Brazilya bilan munosabatlari noto‘g‘ri tarzda davom etishi mumkin edi. Braziliya G20 a’zosi, agarda Germaniya Braziliya bilan munosabatlari sovuqlashganda – savdo, energetika hamkorligi hamda iqlim bo‘yicha birgalikda ishlar o‘z nihoyasiga yetgan bo‘lardi. FES bunday xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun Berlinni ogohlantiruvchi siyosiy tahlil tayyorladi.

Jozef Nay “Yumshoq kuch” kitobida “Firmalar, universitetlar, fondlar, cherkovlar va boshqa nohukumat guruhlar rasmiy tashqi siyosat maqsadlari bilan mos kelishi yoki zid bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘zlarining yumshoq kuchini rivojlantiradi. Aynan shu sababli hukumatlar o‘z harakatlari va siyosati yumshoq kuchni mustahkamlashiga, uni zaiflashtirib qo‘ymasligiga harakat qilishi kerak” deb yozgan. Jozef Nayning ushbu fikri Germaniya misolida o‘z tasdig‘ini topdi. KAS va FES rasmiy hukumat tashkilotlari emas, ammo ular Germaniya diplomatiyasi yeta olmagan joylarda, masalan Turkiya muxolifati bilan muloqatda, Serbiyaga nisbatan strategiyasi shakllanishida hamda Braziliyadagi vaziyatni tushuntirishda o‘z yumshoq kuchini amalga oshirdi.

[10] Friedrich-Ebert-Stiftung (FES). (2022). Dialogue on Turkey’s foreign policy and EU relations.
[11] Friedrich-Ebert-Stiftung (FES). (2023). Brazil’s foreign policy position on the Ukraine war.

XULOSA Muxtasar qilib aytganda, Germaniyada tashqi siyosat shakllantirish jaroyinida aqliy markazlar muhim va hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Ular nafaqat maslahat beruvchi institular, balki siyosiy qarorlarning ilmiy asosini yaratuvchi kuch sifatida namayon bo‘lmoqda. Ayniqsa Zeitenwende davrida SWP va DGAP hamda siyosiy fondlar tomonidan ishlab chiqilgan tahlillar Berlin tashqi siyosatida keskin burilish yasadi. FES va KAS kabi fondlar yumshoq kuch orqali Germaniyani xalqaro ta’sirini yana kengaytirmoqda. Berlin tajribasi shuni isbotlaydiki, zamonaviy dunyoda davlat boshqaruvi aqliy markazlar, siyosiy fondlar va institutlar o‘rtasidagi hamkorlik mamlakat tashqi siyosat yuritishida samaradorlikni ta’minlaydi. Tashqi siyosatning ko‘rinmas, ammo hal qiluvchi kuchi sifatida aqliy markazlar namoyon bo‘ldi. Ular nafaqat mavjum muammolarga yechim topadi, balki kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan tahdid va imkoniyatlarni oldindan ko‘ra oladigan ustunlik beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zbignev Bjenizkiy. (2023). Buyuk shaxmat taxtasi. Toshkent: Trust and Support.
2. Jozef Nay. (2023). Yumshoq kuch. Toshkent: Trust and Support
3. I. Carry, N. Godehardt, M.Muller, (2023). The Logic of Germany's China Policy in the Zeitenwende. Stiftung Wissenschaft und Politik (SWP). Retrieved from: https://www.swp-berlin.org/en/publication/the-logic-of-germanys-china-policy-in-the-zeitenwende
4. O. Spillner, G. Wolff, (2023). China De-risking: A Long Way from Political Statements to Corporate Action. Berlin. Deutsche Gesellschaft für Auswartige Politik (DGAP). Retrieved from: https://dgap.org/en/research/publications/china-de-risking
5. Bundesministerium fur Wirtschaft und Klimaschutz (BMWK). (2023). China Strategy of the German Federal Government. Berlin. Retrieved from: https://www.bmwk.de/Redaktion/EN/Artikel/Economy/china-strategy.html
6. Auswartiges Amt (Federal Foreign Office). (2023). Guidelines on Germany’s China Policy. Berlin. Retrieved from: https://www.auswaertiges-amt.de/en/china
7. European Commission. (2023). Economic Security Strategy of the European Union. Brussels. Retrieved from: https://commission.europa.eu/publications/economic-security-strategy_en
8. Stiftung Wissenschaft und Politik (SWP). Berlin. Retrieved from: https://www.swp-berlin.org
9. Deutsche Gesellschaft für Auswartige Politik (DGAP). Berlin. Retrieved from: https://dgap.org
10. Konrad-Adenauer-Stiftung (KAS). Rule of Law Programme Southeast Europe. Retrieved from: https://www.kas.de/en/web/rlpsee/about-us
11. Friedrich-Ebert-Stiftung (FES). International Work. Retrieved from: https://www.fes.de/en/stiftung/international-work
12. Reuters. (2025). Energy Crisis and Its Impact on European Economies. Retrieved from: https://www.reuters.com/business/energy
13. Reuters. (2026). Chancellor Merz Visits Beijing. Retrieved from: https://www.reuters.com